

О‘ЗBEK VA ITALYAN MADANIYATLARI O‘RTASIDAGI LINGVOMADANIY O‘XSHASHLIKLARNING ITALYAN TILINI O‘QITISHDAGI AHAMIYATI

Pardayeva Zarina Kamol qizi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya

universiteti, italyan tili o‘qituvchisi

Elektron pochta: zarrinakamalovna@gmail.com

Annotatsiya:

Ushbu maqolada o‘zbek va italyan madaniyatlari o‘rtasidagi lingvomadaniy o‘xshashliklar hamda ularning italyan tilini o‘qitishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi har ikki xalq madaniyatida muhim o‘rin tutuvchi oila, mehmondo‘stlik, hurmat va muloqot madaniyati kabi konseptlarning til orqali ifodalanishini qiyosiy o‘rganishdan iborat. Tadqiqot davomida qiyosiy-tavsifiy va lingvokulturologik tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot natijalari o‘zbek va italyan madaniyatlari o‘rtasidagi lingvomadaniy yaqinliklar italyan tilini o‘qitish jarayonida madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish, kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish hamda o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ko‘rsatdi. Mazkur tadqiqot italyan tilini o‘qitishda lingvomadaniy yondashuvlardan foydalanishning amaliy ahamiyatini yoritadi.

Kalit so‘zlar: lingvokulturologiya, o‘zbek tili, italyan tili, madaniyatlararo kommunikatsiya, lingvomadaniy o‘xshashliklar, qiyosiy tahlil, kommunikativ kompetensiya, til o‘qitish metodikasi.

Kirish

Zamonaviy sotsiolingvistika va antropotsentrik tilshunoslik paradigmalarida til shunchaki axborot uzatish vositasi sifatida emas, balki milliy mentalitet, etnik xotira

va xalqning kognitiv xaritasini oʻzida mujassam etuvchi murakkab semiotik tizim sifatida talqin etiladi [1, 12-b.]. Til va madaniyat oʻrtasidagi uzviy bogʻliqlik masalasi Sapir va Uorf nazariyasida ham alohida taʼkidlangan boʻlib, unga koʻra til nafaqat voqelikni aks ettiradi, balki insonning dunyoni idrok etishiga ham taʼsir koʻrsatadi. Duranti (1997) esa tilni madaniy amaliyot sifatida baholab, u ijtimoiy guruhlarining qadriyatlari, urf-odatlar va muloqot meʼyorlarini oʻzida aks ettirishini qayd etadi.

Shu nuqtayi nazardan, geografik jihatdan turli madaniy hududlarda shakllangan hamda turli til oilalariga mansub boʻlgan oʻzbek va italyan tillari oʻrtasidagi lingvomadaniy oʻxshashliklarni oʻrganish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Oʻzbek tili turkiy tillar oilasiga, italyan tili esa hind-yevropa tillari oilasining roman guruhiga mansub boʻlsa-da, har ikki xalqning muloqot madaniyati, ijtimoiy munosabatlari va qadriyatlar tizimida bir qator umumiy jihatlar kuzatiladi. Xususan, oila, mehmondoʻstlik, kattalarga hurmat va jamoaviy qadriyatlar har ikki madaniyatda muhim oʻrin tutadi. Tadqiqotchilarning taʼkidlashicha, Oʻzbekiston va Italiya, ayniqsa Italiyaning janubiy hududlari, yuqori kontekstli muloqot xususiyatlari hamda kuchli oilaviy qadriyatlari bilan ajralib turadi [2, 89-b.].

Shu sababli oʻzbek va italyan madaniyatlarida “oila”, “mehmondoʻstlik”, “hurmat” va “ijtimoiy masofa” kabi konseptlarning tildagi ifodalanishini qiyosiy oʻrganish nafaqat lingvokulturologik tadqiqotlar uchun, balki italyan tilini oʻqitish metodikasini takomillashtirish hamda talabalarning madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyatga ega. Kramsch (2014) taʼkidlaganidek, xorijiy tilni oʻrganish jarayoni turli madaniyatlar oʻrtasida “uchinchi makon”ni shakllantiradi va oʻquvchilarning madaniyatlararo tafakkurini rivojlantiradi. Byram (1997) esa madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani zamonaviy xorijiy til taʼlimining muhim maqsadlaridan biri sifatida eʼtirof etadi. Shu jihatdan, oʻzbek va italyan madaniyatlari oʻrtasidagi lingvomadaniy oʻxshashliklarni oʻrganish italyan tilini oʻqitish jarayonida qiyosiy va lingvokulturologik yondashuvlardan samarali foydalanish imkonini beradi.

Metodologiya

Tadqiqotning metodologik asosini G. Hofstedening madaniy o'lvchovlar nazariyasi, E.Xollning kontekstual muloqot konsepsiyasi hamda zamonaviy lingvokulturologiyada qo'llaniladigan qiyosiy va interpretatsion yondashuvlar tashkil etadi. Tadqiqot materiali sifatida o'zbek va italyan tillarida uchraydigan frazeologik birliklar, nutqiy etiket namunalari hamda noverbal muloqot vositalari tahlil qilindi. Mazkur birliklar "oila", "mehmondo'stlik", "hurmat", "ijtimoiy masofa" va "muloqotdagi yaqinlik" kabi madaniy konseptlar doirasida qiyosiy-tipologik, semantik va pragmatik tahlil asosida o'rganildi.

Tadqiqot jarayonida har ikki til va madaniyatga xos birliklarning nafaqat lug'aviy ma'nosi, balki ularning kommunikativ vazifasi, madaniy konnotatsiyasi hamda nutqiy vaziyatlarda qo'llanish xususiyatlariga ham e'tibor qaratildi. Bu yondashuv o'zbek va italyan tillari o'rtasidagi nafaqat leksik, balki lingvomadaniy va kommunikativ o'xshashliklarni aniqlash imkonini berdi.

Natijalar va chuqur solishtirma tahlil

1.1. "Oila" (La famiglia) konseptining lingvomadaniy talqini

O'zbek va italyan madaniyatlarida "oila" konsepti muhim ijtimoiy-madaniy qadriyatlardan biri hisoblanadi. Har ikki xalqning dunyoqarashi va muloqot madaniyatida oila nafaqat qarindoshlik munosabatlarini, balki avlodlar davomiyligi, o'zaro hurmat va jamoaviy birdamlik g'oyalarini ham ifodalaydi. Tadqiqotchilar ta'kidlashicha, o'zbek va italyan madaniyatlarida oila konsepti keng qarindoshlik munosabatlarini qamrab oluvchi murakkab ijtimoiy institut sifatida namoyon bo'ladi [3, 45-b.].

O'zbek tilida qarindoshlik munosabatlarini ifodalovchi birliklar nihoyatda boy va iyerarxik xarakterga ega. Jumladan, *tog'a, amaki, xola, amma, qaynona, qaynota, qaynuka, qaynsingil* kabi so'zlar qarindoshlik darajasi, jins, yosh hamda ijtimoiy mavqeni aniq ifodalaydi. Bu holat o'zbek jamiyatida oilaning nafaqat biologik birlik,

balki hurmat, mas’uliyat va ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi muhim madaniy konsept ekanligini ko’rsatadi.

Italyan tilida ham *la famiglia* tushunchasi keng ijtimoiy va madaniy mazmunga ega. *Zio* (amaki, tog’a), *zia* (amma, xola), *nonno* (bobo), *nonna* (buvi), *cugino/cugina* (amakivachcha, tog’avachcha, xolavachcha, amnavachcha) kabi birliklar oilaviy munosabatlarning kundalik muloqotda muhim o’rin tutishini ko’rsatadi [4, 112-b.]. Biroq o’zbek tilida qarindoshlik terminlari italyan tiliga nisbatan batafsilroq differentsiallashtirilgan. Masalan, italyan tilidagi *zio* leksemasi o’zbek tilida *tog’a* va *amaki* tarzida, ya’ni qarindoshlikning ota yoki ona tomoni asosida farqlanadi.

Shunga qaramay, har ikki madaniyatda “oila” konsepti shaxsiy hayot doirasidan tashqariga chiqib, hurmat, avlodlar davomiyligi va jamoaviy birdamlikni ifodalovchi muhim lingvomadaniy birlik sifatida namoyon bo’ladi. Mazkur o’xshashliklar italyan tilini o’qitish jarayonida talabalarga yangi madaniyatni qiyosiy asosda tushuntirish, madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish hamda til birliklarining pragmatik xususiyatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

1-jadval. O’zbek va italyan madaniyatlarida “oila” konseptining kommunikativ-pragmatik ifodalanishi

Muloqot vaziyati	O’zbek tilidagi ifoda	Italyan tilidagi ifoda	Pragmatik vazifasi
Oilaviy holat haqida so’rash	“Uyda gilar tinchmi?”, “Bolalar yaxshimi?”	“Come sta la tua famiglia?”	Suhbatni samimiy boshlash, suhbatdoshga e’tibor ko’rsatish

Oilaviy yaqinlikni ifodalash	“Jigarlarim”, “Aka-ukachilik”	“Fratelli”, “La mia famiglia”	Oilaviy birdamlik va yaqinlikni ifodalash
Kattalarga hurmat	“Bobo”, “Buvi”, “Ota-ona”	“Nonno”, “Nonna”, “Genitori”	Avlodlar davomiyligi va hurmatni ifodalash
Qarindoshlik munosabatlari	“Tog`a”, “Amaki”, “Xola”, “Amma”	“Zio”, “Zia”	Qarindoshlik munosabatlarini ifodalash
Mahalliy hamjamiyatga mansublik	“Mahalla”, “Mahalladosh”	“Campanilismo”	Mahalliy jamoaga daxldorlik hissini ifodaalsh

1.2. Mehmondo‘stlik konseptining lingvomadaniy talqini

Mehmondo‘stlik o‘zbek va italyan xalqlarining madaniy qadriyatlar tizimida alohida o‘rin egallaydi. Har ikki madaniyatda mehmonni hurmat bilan kutib olish, unga e‘tibor ko‘rsatish va samimiy munosabat bildirish muhim ijtimoiy norma sifatida qaraladi. Shu sababli mehmondo‘stlik konsepti til birliklari, maqollar, frazeologizmlar va nutqiy etiket formulalarida o‘z aksini topgan.

O‘zbek madaniyatida “Mehmon otangdan ulug‘”, “Mehmon kelsa, rizqi bilan keladi” kabi maqollar mehmonning jamiyatdagi yuksak mavqeini ifodalaydi. Mehmonni kutib olish va kuzatish bilan bog‘liq marosimlar ham o‘zbek xalqining mehmondo‘stlik an‘analarini namoyon etadi.

Italyan madaniyatida ham mehmonni e‘zozlash muhim qadriyat hisoblanadi. Italyan tilidagi *L’ospite è sacro* (“Mehmon muqaddasdir”) iborasi bunga yaqqol misol

bo'la oladi [4, 118-b.]. Shuningdek, italyanlarning birgalikda ovqatlanish, qahva ustida suhbat qurish va oilaviy yig'ilishlarni tashkil etish an'analari ham mehmondo'stlik madaniyatining muhim ko'rinishlaridan biridir.

Mazkur o'xshashliklar italyan tilini o'qitishda autentik kommunikativ vaziyatlarni yaratish, talabalarni madaniyatlararo muloqotga tayyorlash hamda til birliklarining madaniy mazmunini tushuntirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

2-jadval. Mehmondo'stlik konseptining qiyosiy tavsifi

Lingvomadaniy konsept	O'zbek tili ifodalari	Italyan tili ifodalari	Pragmatik vazifasi
Mehmon maqomi	"Mehmon otangdek ulug'"	"L'ospite è sacro"	Mehmonni hurmat qilish
Dasturxon madaniyati	"Tuz-nasiba", "Tuzini totmoq"	"Dividere il pane"	Samimiylik va yaqinlik
Mehmondorchilik taklifi	"Bir piyola choy ustida diydorlashuv"	"Prendiamo un caffè insieme"	Muloqotga taklif etish ssenariysi

1.3. Hurmat va ijtimoiy masofa konseptining qiyosiy tahlili

Hurmat kategoriyasi o'zbek va italyan madaniyatlarida muhim kommunikativ vositalardan biri hisoblanadi. Har ikki tilda suhbatdoshning yoshi, ijtimoiy mavqei va muloqot vaziyatiga qarab murojaat shakllari tanlanadi.

O‘zbek tilida hurmat ma’nosi asosan “Siz” olmoshi orqali ifodalanadi. Bundan tashqari, “aka”, “opa”, “amaki”, “xola” kabi murojaat birliklari ham hurmat ifodalovchi vositalar sifatida keng qo‘llanadi.

Italyan tilida esa *tu* va *Lei* oppozitsiyasi mavjud bo‘lib, rasmiy vaziyatlarda *Lei* shakli qo‘llaniladi. Ushbu tizim muloqot ishtirokchilari o‘rtasidagi ijtimoiy masofani saqlash va hurmatni ifodalashga xizmat qiladi [4, 215-b.].

Mazkur o‘xshashliklar italyan tilini o‘qitish jarayonida murojaat shakllarini qiyosiy asosda tushuntirish va talabalarda pragmatik kompetensiyani shakllantirish imkonini beradi.

3-jadval. Hurmat va ijtimoiy masofa kategoriyasining qiyosiy tavsifi

Ko‘rsatkich	O‘zbek tili	Italyan tili
Hurmat shakli	Ikkinchi shaxs ko‘plik (“Siz”)	Uchinchi shaxs birlik (“Lei”)
Norasmiy murojaat	Ikkinchi shaxs birlik (“Sen”)	Ikkinchi shaxs birlik (“Tu”)
Kattalarga murojaat	Aka, opa, amaki, xola	Signore, Signora
Pragmatik vazifa	Hurmat va ijtimoiy masofani saqlash	Hurmat va ijtimoiy masofani saqlash

1.4. Noverbal muloqot va kommunikativ xulq-atvor

Noverbal muloqot madaniyatlararo kommunikatsiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. O‘zbek va italyan madaniyatlarida imo-ishoralar, mimika va intonatsiya muloqotning samaradorligini ta’minlovchi vositalar sifatida faol qo‘llaniladi.

O'zbek madaniyatida qo'lni ko'krakka qo'yish hurmat va minnatdorlik ramzi hisoblanadi. Italyan madaniyatida esa qo'l harakatlari va yuz ifodalari muloqotning ajralmas qismi bo'lib, ular ko'pincha nutq mazmunini kuchaytiradi. Shu sababli italyanlar haqida "qo'llari bilan gapiradigan xalq" degan qarash ham mavjud.

Til o'rganish jarayonida noverbal vositalarni hisobga olish talabalarning real kommunikativ vaziyatlarda muvaffaqiyatli muloqot olib borishiga yordam beradi. Bu esa madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari o'zbek va italyan madaniyatlari o'rtasida qator lingvomadaniy o'xshashliklar mavjudligini ko'rsatdi. Xususan, oila, mehmondo'stlik, hurmat va noverbal muloqot kabi konseptlar har ikki xalqning qadriyatlar tizimi hamda kommunikativ xulq-atvorida muhim o'rin tutadi. Qiyosiy tahlil ushbu konseptlarning tildagi ifodalanishida semantik va pragmatik yaqinliklar mavjudligini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqot davomida til va madaniyat o'zaro uzviy bog'liq hodisalar ekani yana bir bor tasdiqlandi. Kramsch (2014) qayd etganidek, xorijiy tilni o'rganish jarayoni faqat lingvistik bilimlarni emas, balki yangi madaniy makonni anglashni ham nazarda tutadi. Byram (1997) tomonidan ilgari surilgan madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya konsepsiyasi nuqtayi nazaridan qaralganda, o'zbek va italyan madaniyatlari o'rtasidagi lingvomadaniy o'xshashliklar talabalarning til va madaniyatni uyg'un holda o'zlashtirishiga xizmat qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, lingvomadaniy yondashuv italyan tilini o'qitish jarayonida talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish,

madaniyatlararo muloqotga tayyorlash hamda til birliklarining madaniy mazmunini chuqurroq anglashda muhim metodik vosita hisoblanadi. Mazkur tadqiqot natijalari italyan tilini o`qitishda qiyosiy va lingvokulturologik yondashuvlardan samarali foydalanish imkoniyatlarini ko`rsatadi.

Adabiyotlar ro`yxati

1. Mahmudov, N. (2017). *Til va madaniyat*. Toshkent: Mumtoz so`z.
2. Duranti, A. (1997). *Linguistic Anthropology*. Cambridge: Cambridge University Press.
3. Hall, E. T. (1976). *Beyond Culture*. New York: Anchor Books.
4. Hofstede, G. (2011). Dimensionalizing Cultures: The Hofstede Model in Context. *Online Readings in Psychology and Culture*, 2(1). DOI: 10.9707/2307-0919.1014.
5. Byram, M. (1997). *Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence*. Clevedon: Multilingual Matters.
6. Kramersch, C. (2014). Teaching Foreign Languages in an Era of Globalization: Introduction. *The Modern Language Journal*, 98(1), 296–311. DOI: 10.1111/j.1540-4781.2014.12057.x.